

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

4 Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- | | | |
|----------------------------------|----|---|
| Sh. Mardonov,
O. Jabborova | 6 | Ta'lilm jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari |
| A. Abdullayev | 9 | Boshlang'ich ta'limd jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi |
| D. Maxmudova | 12 | Maktabgacha yoshdag'i bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar |
| M. Musurmonova | 16 | Umumiy o'rta ta'lilm maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati |
| R. Musurmanov,
M. Musurmonova | 20 | Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida |
| F. Ochilov | 23 | Umumiyo'rta ta'limmaktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati |
| B. Axmadaliyev | 27 | Umumiy o'rta ta'lilm maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakkantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati |
| G. Tojiboyeva,
Z. Suleymanova | 31 | Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli |
| U. Sermatova | 35 | Millat ruhini saqlash yo'lida |
| F. Atabekov | 39 | Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashhg'ulotlarining o'mni |
| O. Jabborova | 43 | Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlanterishning pedagogik muammolari |
| M. Achilova | 46 | Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli |
| D. Po'latova | 50 | Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari |
| Z. Umarova | 54 | Ta'lilm muassasalaridagi nizolarni hal qilish |



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- | | | |
|---|----|---|
| M. Abdullayeva | 57 | Pedagogik va tarbiyaviy ishlар metodikasi |
| G. Kuzmanova,
B. Alimov,
N. Beketov | 61 | Uchinchi tartibli tenglamalar |
| X. Gulyamova | 65 | Umumiy o'rta ta'lilm maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi |
| R. Nosirova | 69 | Maktabgacha ta'limd metakognitiv ko'nikmalarni shakkantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash |



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- | | | |
|-------------|----|---|
| D. Mutalova | 73 | Ta'lilm klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida |
| L. Boliyeva | 76 | Oliy ta'limd "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari |



X. Gulyamova,
U. Shermatova **79** Ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarni xalqaro "pirls" nazoratiga tayyorlash

A. Karimjonov,
O. Jabborova **83** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida "tarbiya" fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi

Z. Shanasirova **86** Bolalarni maktabga tayyorlashda multimedia vositalaridan foydalanish afzalliklari

MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI



R. Nosirova,
N. Rustambekova **89** O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-ylgacha rivojlantirish konsepsiyasini amaliyatga joriy etish texnologiyalari

JISMONIY TARBIYA VA SPORT



E. Soatov **93** Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda ularning psixologik holatini o'rganish

F. Abdullayev
B. Abdullayeva **97** Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida jismoniy mashqlarning o'mi

A. Jo'raboyev **101** Jismoniy tarbiya va sportning bola tafakkuriga ta'siri

E. Hurramov **104** Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mash'ulotlariga umumiy tasnif

MAKTABGACHA TA'LIM



N. Maripova **107** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga noan'anaviy applikatsiya yasash usullarini o'rgatish

A. Sanakulova **111** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim takliflar

Z. Teshabayeva **114** Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish o'yin faoliyati shakllarini tashkil etish

L. Narimbayeva **117** Maktabgacha yoshidagi bolalar hayotida teatrning roli

N. Urinova,
A. Abdullayev **121** Ilk yoshidagi bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati

Z. Nasirova **124** Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini o'stirishda tilning fonetik, leksik va grammatick aspektlari

S. Xolmatova **128** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tafakkurini shakllantirish omillari

ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR



Z. Narimbetova **131** Matematika darslarda o'quvchilar ijodkorligini rivojlanishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'mni



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ш. Марданов,
У. Закирова **134** Об основных понятиях педагогических ценностей

Ю. Кушназарова **138** Теоретические исследования в математике



ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ

Р. Гимазутдинов **141** Знания по физической культуре – основа физкультурного образования дошкольников

Umida SHERMATOVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
“O’zbek tili va adabiyoti” kafedrasи o’qituvchisi

MILLAT RUHINI SAQLASH YO‘LIDA

Annotation

Mazkur maqolada o’zbek tilining hozirgi globallashuv jarayonida tutgan mavqeи, tilning sofligi uchun kurashning ahamiyati, tilshunoslar va o’qituvchilar tomonidan bu borada amalga oshirilish lozim bo’lgan ishlар haqidа fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar. Ta’lim sohasи, vatanga muhabbat, intellektual salohiyat, milliy-ma’naviy qadriyatlar, so’z qudrati, milliy til mavqeи, lug’at boyligi, o’zbek tili va adabiyoti.

В данной статье обсуждается роль нашего родного языка – узбекского языка в нынешнем процессе глобализации, важность борьбы за чистоту языка, работа, которую необходимо проделать лингвистам и учителям в этом отношении.

Ключевые слова. Сфера образования, любовь к родине, интеллектуальный потенциал, национальные и духовные ценности, сила слова, статус национального языка, словарный запас, узбекский язык и литература.

This article discusses the role of our mother tongue, Uzbek language, in the current process of globalization, the importance of fighting for the purity of the language, and the work that needs to be done by linguists and teachers in this regard.

Key words. Sphere of education, love for the homeland, intellectual potential, national and spiritual values, the power of a word, the status of the national language, vocabulary, Uzbek language and literature.

Hozirgi kun respublikamiz til ta’limi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o’sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, ona Vataniga muhabbat, an’anaviy milliy-ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashdir. Shu o’rinda jumladagi an’anaviy so’ziga urg’u berib o’tmoqchiman.

Sir emaski, yetuklik yoshiga yetgan bir avlod ko’z o’ngida insoniyatning axborot almashish madaniyati g’ayrioddiy tezlikda o’zgarib bormoqda. Axborotni qabul qilish va idrok etish, uni multimedia shaklida saqlash, yaqin o’n yillar orasida intellektual texnologiyalarning asosi hisoblangan an’anaviy kitobxonlikni siqib chiqarmoqda. Bugungi kunga kelib, ma’lumotni elektron pochta orqali yuborishni bilmaslik, internetdan foydalanma olmaslik, axborotni yuklab olish va saqlashni bilmaslik va hattoki, urfga kirib qolgan taqdimot qila olmaslik kishini noqulay ahvolga solib qo’yishi tabiiy hol bo’lib qoldi. Bir jihatdan u yoki bu sohadagi intellektual va ijodiy faoliyat egasining darajasi har qanday aqlli texnologiyalardan mohirlilik bilan foydalana oladiganlardan ortiqroq ekanligini e’tibordan chetda qoldirmoqdamiz. Natijada, o’sib kelayotgan yosh avlod nisbatan osonlik bilan qo’lga kiritgan ma’lumotlarini o’z miyasida emas, kompyuter xotirasida saqlab olishga intilayotganligining guvohi bo’lmoqdamiz. Ular o’z shaxsiy intellektual mulkiga aylanib qolishi mumkin bo’lgan bilimlarga bosqichma-bosqich, asosli tarzda tajribadan o’tkazib mehnat qilib erishish quvonchidan bebahra qolishmoqda. Shunga ko’ra, aytish joizki, hozirgi globallashuv sharoitida maqsad va unga yetkazuvchi vosi-

talar o'rni al mashib qolayotgandek. AKT – axborotni qabul qilish, saqlash, shu bilan birga yoki tahlil qilish vositasidir, zinhor maqsad emas. Maqsad esa axborotda berilgan SO'Zni tushunmoqdir. SO'Zni tushunish, uni his qilish va idrok etishda xuddi mana shu vositalar ba'zan to'siq ham bo'lib qoladi. Quloqqa tez-tez chalinib turgan innovatsiya, modernizatsiya tushunchalarining xulyosi tufayli inson qalbi va tafakkuri uchun zarur axborot turli disk va flesh-kartalarda yoxud qog'ozda emas, SO'Zda, xalq tilida mu-jassamlashganligi isbot talab qilmas haqiqatdir. So'z ichra mudom aql yashirindur, – deganda Nosir Xisrov nechog'li haq edi. Beixtiyor Alisher Navoiydan bayt esga keladi:

*Ko'ngil mahzanining qulfi til,
Va ul mahzanning kalitin so'z bil.*

Ma'lumki, so'z alifboden, kitob yozishdan va, albatta, kompyuter texnologiyalari dan avvalroq paydo bo'lgan. Bu borada mashhur rus pedagog olimi K.D. Ushinskiyning fikrlari ahamiyatlidir: "Tildagi har bir so'z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg'usining natijasidir, o'sha tafakkur va tuyg'ular orqali so'z yordamida mamlakat tabiatini va xalq tarixi ifoda etilgan". Biroq bugungi kunga kelib, tashvishlanishga asos bo'layotgan ma'nnaviy tanazzul va ma'nnaviy qashshoqlik ona tilimiz mavqeining tushib ketishi emas, yo'qolishi bilan uzviy bog'liqidir.

Afsuslar bo'lsinkim, ko'cha-ko'yda, ayrim jamoa guruhlari, davralarda odob doirasida so'zlamaslik, yumshoq qilib aytganda, so'zlashish me'yorি hisoblanmoqda. Tilni buzib so'zlashish qarida ham, yoshda ham: oila boshliqlari, uy bekalari, bo'lajak er yigitlar va onalar, o'g'il va qiz bolalar orasida avj olib ketganligi shubhasiz. Mazkur holat jamiyat inqirozi va ma'nnaviy tushkunlikka yo'l ochmasligiga hech kim kafolat bermaydi.

O'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, uning mustahkam ildizlarining to shu kunlargacha saqlanib qolishining o'zi ham o'zga tillardan maqsadsiz, bo'lar-bo'lmagso so'z o'zlashtirishdan saqlanishni ta'minlay oladi. Lug'at boyligimizning salmoqli qismini hayotiy ehtiyoj, ta'lim, sog'iqliqi saqlash, adabiyotga tegishli tilimizda mustahkam o'ringa ega o'zlashmalar tashkil qiladi. Lekin gap bu o'zlashma so'zlar ustida emas! Lug'atimizda muqobili mavjud bo'lsa-da, top-menedjer, ofis, absurd kabi so'zlarni o'zlashtirish tilimiz rivojiga jiddiy putur yetkazishi mumkinligi tufayli ma'qullab bo'lmaydi. Aks holda kelajak avlod tilimiz go'zalligi, latofatidandan bebahra qolishi hech gap emas.

Aslida til sofligi endi paydo bo'lgan muammo emas. Hifzi lison muammosi Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburni ham, Abdulla Avloniy va Cho'ponni ham (bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin) o'nga toldirgan. Bir asr ilgari "Milliy tilni yo'qotmak, millatning ruhini yo'qotmakdur. Hayhot! Biz, turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursin, kundan-kun unutmak va yo'qotmakdadurmiz," – deya hayqirgan Abdulla Avloniy tilimizning hozirgi kundagi holini ko'rsa qanday ahvolga tushishini tasavvur qilish qiyin emas. Do'konlar, turli muassasalar peshtoqlaridagi yozuvlarning rus tilidagi korinishi ham ip esholmay qoldi. Ko'zga ko'rinarli joylarda ingliz tilidagi (market, byuti salon, book-kafe kabi so'zlar) jilvasi lug'atimizdagi sof turkiy so'zlarni surib chiqarayotganga o'xshaydi. Achinarlisi milliy tilga e'tiborsizlik yoshlarning O'zbekiston deya atalmish muazzam zaminimiz – Vatanimizga bo'lgan qaynoq tuyg'ularini so'ndirib qo'yishi mumkinligi kishini xavotirga soladi.

O'zbek adabiy tili taraqqiyotining shakllanishi va rivojlanishiga Vatani O'zbekistoni muqaddas deb bilgan har qanday odam: jamiyat va davlat arboblari, publisistlar, olimlar va, albatta, tilshunos o'qituvchilar o'z hissalarini qo'shmoqlari lozim. Muammo-

ni chuqur anglagan holda har birimiz mas'uliyatni o'z bo'ynimizga olmog'imiz darkor. Zero, tilimiz kelajagi bizning o'z nuqtai nazarimizni qo'ya olishimiz va til sofligi uchun kurashda to'g'ri yo'l tutishimizga bo'g'liq.

Bu borada davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. Quvonarlisi, O'zbek tilini rivojlantirish departamenti tuzildi, uning tilni saqlash va rivojlantirishga oid faoliyati qonunlashtirildi. Davlat muassasalarida til o'rganish, savodxonlik darajasini ko'tarish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Til mutaxassislarining endigi vazifasi boshlangan xayrli ishlarni susaytirmsandan, jahon tajribalarini o'rgangan holda yangi bosqichga ko'tarmoqdir. Mazkur vazifalarni ado etishda ona tili va adabiyot darslari keng imkoniyatlarga ega. O'quvchida so'z zavq uyg'ota olsa, ta'sirlantirsa bu so'z shubhasiz uning faol lug'ati tarkibiga kiradi. Bunda tilimizning so'z zaxirasi tubsiz dengiz misol. Tasavvur qiling, bиргина qo'l so'zi ellikdan ortiq ibora tarkibida qo'llanadi. Yoki ko'z so'zining o'ndan ortiq ko'chma ma'nolari mavjud. Tilimiz lug'at boyligining sarhadlari qanchalar keng ekanligi undan doimiy fikrlab qo'llangandagina bo'y beradi. Aks holda buni his qilmay qolishimiz ham tayin.

Tildan to'g'ri va unumli foydalanishning muhim shartlaridan biri milliy tafakkur tarzimizga daxldor deb bilaman. Rus tilini o'rganish qattiq turib o'rgatiladigan o'tgan asrning 1970-1980 yillarda rus tili o'qituvchilari rus tilida fikrlashni to'g'ri talab qilishar edi. Rus tilida fikrlash uchun Pushkinni o'qidik, Lermontovni yod oldik va erkin so'zlasha oladigan darajada o'rgandik. Bu usuldan o'z ona tilimiz go'zalligini o'rgatishda foydalanmayo'tganimizni afsuslanarli hol deb o'ylayman. Ona tilida fikrlash tarzini egallash uchun Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Abdulla Qodiriy, Cho'lpion kabi buyuk adiblarimiz asarlarini mag'zini chaqib berib o'rgatishmiz bu borada katta imkoniyatdir. Ona tili va adabiyot darslarida lug'at ustida ishlar deyarli olib borilmaydi. O'quvchilarni bir darsda tushunarsiz so'zlar lug'atini tuzib, ular ma'nosini yodlashga, shu so'zlardan nutqida foydalanishga odatlantirish ko'p mehnat talab qilmaydi. Darslarni kuzata turib ajablanasan kishi, ingliz va rus tili darslarida alohida lug'at ustida ishlash uchun vaqt ajratiladi, buni ona tili va adabiyot darslarida uchratmaymiz. Aslida har bir ona tili va adabiyot darslari uchun ma'nosи o'rganilishi lozim bo'lgan so'zlar ro'yxati tuzilishi odat tusiga kirishi shart. Ingliz tilida har bir dars uchun kamida o'nta so'z yodlanishi shart bo'lgani kabi.

Buning uchun ona tili darslarida quyidagicha bir qator mashq turlaridan maqsadli foydalanish ham kutilgan natijalarni kafolatlaydi.

Chunonam bir terlaysizki, dardingiz xamirdan qil sug'urgandek chiqib ketadi. (S.Ahmad) Yo'qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi. (H.Nazir) Hoji xola ko'zi ilinib, endi xurrak ota boshladi. (M.Ismoilii)...Qizlar har zamon ishdan bosh ko'tarib, bir-biriga gap otishadi.(S.Ahmad) kabi gaplardan frazeologizmlarning sinonimlarni aniqlash;

Nasriddinbek gilamga sochilgan satranj donalarini bosib, pastga tushdi. (Mirmuhsin) Olimshoh yeti mamlakat xoqonidan yiliga ikki martadan xiroj olar ekan. ("Gulpari" ertagidan) Boy desangiz – bir guli nihol, Dilni o'rtar yonoqdagi xol. (Oybek) Shodlikdan bir zumdayoq dudoqlar yonib ketdi. (Mirmuhsin) kabi gaplardan eskirgan so'zlarning ma'nolarini izohlash;

berilgan asar matnidan eskirgan (yoki, aksincha, yangi paydo bo'lgan) so'zlarni aniqlab, qaysi sohaga oidligini aniqlash;

Kampir epchilllik bilan laganni tepalab handalaklarni karchladi. (Oybek) O'shaqqa ketsak yomon bo'lmaydi. Mani aytdi, dersan.(S.Ahmad) kabi gaplar tarkibida keltirilgan dialektal so'zlarni aniqlash, so'zlar qaysi shevaga xosligi va adabiy tildagi shaklini

aytish;

ma'lum soha vakillari hayoti yoritilgan asarlarni aniqlash, ularda keltirilgan terminlar izohini tuzish (Masalan, Jul Vernning "Suv ostida 8000 kilometr" asarida keltirilgan termometr, barometr, kompas, sekstant, xronometr, manometer, termometrik zondlar kabi kemachilik sohasiga doir terminlar);

Saharlab turaman, qutlayman tongni, bo'ynimga osilar subh shamoli. (Mirmuhsin) Ba'zan uni o'qiyan oshkor, Ba'zan xufiya – g'oyatda pinhon.(Mirmuhsin) Intiqom ol! – der edi. Har gunohsiz oqqan qon. O'ch ol! – derdi Maratga Har tong chiqqan zar quyosh. (Shuhrat) Mazkur gaplarda sinonim so'zlarni topish, ma'no ottenkasidagi farqni tushuntirish kabi leksiologiya bo'limiga doir mashqlar shular jumlasidandir.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda ham tilimiz mavqeini ko'tarishga xizmat qiladigan bir qator ko'rik-tanlov o'tkazish ham maqsadga muvofiq. Ko'p hollarda "Yana insholar tanlovimi?", "Siyqasi chiqib ketgan" degan ta'nalarni eshitamiz. Asli-da insholar tanloving belgilanadigan mavzusi o'quvchida qiziqish uyg'ota oladigan bo'lsa ("Eng zo'r xat yozish darsi", "Oltin qalam ilhomii" kabi), insholar tanlovi haqiqiy til bayramiga aylanadi.

Ilmiy xarakterda tashkil etiladigan darsdan tashqari mashg'ulotlar mavzusi ham o'quvchilar yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda tanlanishi belgilangan maqsadni amalga oshirishda bajariladigan ishlarning yarmi hisoblanadi. Masalan, "Antonimlar jangi", "Sinonimlar jilvasi", "Ma'nolari qancha ekan?" shaklida mavzularning tanlanishi maqbuldir.

O'zbekiston qiyin kunlarni boshdan kechirmoqda (Pandemiya – lug'atimizdan mustahkam o'rinni egalladi). Shu bilan birgalikda Vatanimiz ahli ishonch, umid, bунyodkorlik tuyg'ulari ila yashamoqda. Ta'lim sohasidagi bунyodkorlik milliy o'zbek adabiyoti va o'zbek tili asosida amalga oshirilsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishishimiz qiyin kechmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Ikromova, K.Qosimova. O'zbek tilidan mashqlar to'plami. –T.: – O'qituvchi – 1988.
2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. T.: – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti – 2006.
3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T., – 2013.